



Xalq soʻzi

Oʻzbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan



WWW.XS.UZ



E-mail: Info@xs.uz



2026-yil 6-may, № 90 (9261)

Chorshanba

Saytimizga oʻtish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



CHARM-POYABZAL SANOATINI RIVOJLANTIRISH BOʻYICHA USTUVOR VAZIFALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev charm-poyabzal sanoatida
amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi rejalar yuzasidan
taqdimot bilan tanishdi.

Soʻnggi yillarda soha korxonalarini qoʻllab-quvvatlash, ishlab chiqarishni kengaytirish va eksportni koʻpaytirish boʻyicha qator choralar koʻrildi. Joriy yil birinchi choragida charm sanoatida ishlab chiqarish hajmi 962 milliard soʻmni tashkil etib, oʻsish 25 foizdan oshdi. 2030-yilga qadar charm-poyabzal sanoatida ishlab chiqarish hajmini 12 trillion soʻmga, eksportni 500 million dollarga yetkazish, 12 mingga yangi ish oʻrni yaratish maqsad qilingan.

Shu bilan birga, sohada ishga solinmagan imkoniyatlar koʻpligi koʻrsatib oʻtildi. Respublikada katta hajmda teri va jun xomashyosi hosil boʻlayotgan boʻlsa-da, ularni chuqur qayta ishlash darajasi pastligicha qolmoqda. Xususan, qoʻy va echki terisini qayta ishlash darajasi 30 foiz atrofida. Yiliga tayyorlanadigan 40 ming tonna jun xomashyosining esa atigi 6 ming tonnasi, yaʼni 15 foizi qayta ishlanmoqda.

Taqdimotda korxonalar quvvatidan samarali foydalanish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ulushini oshirish va eksport geografiasini kengaytirish boʻyicha takliflar koʻrib chiqildi.

Jumladan, Toshkent viloyatining Ohangaron tumani va Andijon viloyatining Shahrixon tumanida charm-poyabzal sanoatiga ixtisoslashtirilgan sanoat zonalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Bu zonalarda ishlab chiqarish binolari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, logistika, dizayn va malaka oshirish markazlari barpo etiladi. Sanoat zonalarini boshqaruvi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi huzurida tashkil etiladigan maxsus direksiyaga yuklatiladi.

Ohangaronida terini qayta ishlash korxonalarini uchun ekologik talablarga javob beradigan zamonaviy sanoat zonasi tashkil etiladi. Respublikadagi 32 ta terini qayta ishlash korxonasida suv tozalash inshootlarining 70 foizi eskirgan, yagona markazlashgan tizim mavjud emas. Shu bois yangi zonada markazlashgan suv tozalash inshooti qurilib, kuniga 8 ming kub metr gacha tozalangan suvni texnologik jarayonlarda qayta ishlash imkoniyati yaratiladi.

Xomashyo bazasini kengaytirish masalasiga alohida eʼtibor qaratiladi. Qoʻshni davlatlardan

mol terisini markazlashgan holda import qilish, bu jarayonda tadbirkorlarga "yagona darcha" tamoyili asosida koʻmaklashish, transport xarajatlarini kompensatsiya qilish va qayta ishlovchi korxonalarni aylanma mablagʻ bilan taʼminlash taklif etildi.

Mayda shoxli mol terilarini yigʻish va birlamchi qayta ishlash tizimini takomillashtirish ham muhim vazifa sifatida belgilandi. Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida terini yigʻish va birlamchi ishlov berish punktlarini tashkil etish, qayta ishlash korxonalarini ragʻbatlantirish choralari koʻrib chiqildi.

Jun xomashyosini qayta ishlashni kengaytirish boʻyicha Sirdaryo viloyatida yangi kompleks tashkil etish taklif qilindi. Uning quvvati 30 ming tonna junni qayta ishlashga moʻljallanadi. Loyiha ishga tushsa, xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish zanjiri shakllanib, qoʻshilgan qiymat bir necha barobarga oshadi, eksport va ish oʻrinlari koʻpaydi.

Poyabzal, shu jumladan, maxsus poyabzal ishlab chiqarish hajmini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlar bilan kooperatsiya va qoʻshma loyihalarni koʻpaytirish rejaları koʻrib chiqildi.

Taqdimotda sunʼiy charm ishlab chiqarishni kengaytirish masalasiga ham toʻxtalib oʻtildi. Jahon bozorida yirik brendlar ekologik talablar, narx va texnologik qulayliklar nuqtayi nazaridan sunʼiy charmdan foydalanishni kengaytirmoqda.

Mamlakatimizda mazkur yoʻnalishda 7 ta istiqbolli loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Ular natijasida 50 million pogon metr mahsulot ishlab chiqarish quvvati yaratilib, ichki talabning katta qismini qoplanadi, eksport oshadi.

Davlatimiz rahbari sohaga berilgan imtiyozlar oʻz-oʻzidan natija bermasligini, har bir korxona, loyiha va bozor boʻyicha aniq hisob-kitob va amaliy harakat zarurligini taʼkidladi.

Mutasaddilar va hududlar rahbarlariga korxonalarni moliyaviy sogʻlomlashtirish, quvvatlardan toʻliq foydalanish, import oʻrnini bosuvchi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, xalqaro sertifikatlar olishda tadbirkorlarga koʻmaklashish boʻyicha topshiriqlar berildi.

TADBIRKORLARNI OʻYLANTIRAYOTGAN MUAMMOLARNI HAL ETISH CHORALARI KOʻRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-may kuni ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini barqarorlashtirish hamda tadbirkorlarni oʻylantirayotgan muammoli masalalarni hal etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya loyihalarini qoʻllab-quvvatlash va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sanoatda mavjud imkoniyatlardan toʻliq foydalanish, avval ishga tushirilgan korxonalarning barqaror faoliyat yuritishini taʼminlash, ularning mahsulot ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish esa muhim vazifa boʻlib qolmoqda.

Taqdimotda turli sabablarga koʻra toʻliq quvvatda ishlamayotgan va tushumi kamaygan korxonalar faoliyatini oʻrganish natijalari koʻrib chiqildi. Bunday holatlar asosan toʻqimachilik, qurilish materiallari, oziq-ovqat, neft-kimyo, elektrotexnika va boshqa tarmoqlarda kuzatilmoqda.

Ushbu toifadagi korxonalar faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatayotgan omillar orasida aylanma mablagʻ yetishmovchiligi, kommunal infratuzilma bilan bogʻliq masalalar, loyihalarining kechikishi, uskunalarining eskirgani, xomashyo zanjiridagi uzilishlar, mahsulotga talabning pasayishi kabi muammolar koʻrsatib oʻtildi.

Bu muammolarni hal qilish orqali korxonalarda ishlab chiqarishni tiklash va mavjud quvvatlarni toʻliq ishga solib, qoʻshimcha 65,6 trillion soʻmlik mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish imkoniyati borligi aniqlandi.

Shu bois har bir korxona holatini alohida oʻrganib, ularni toʻliq quvvatga olib chiqish boʻyicha yangi tizim joriy etilishi belgilandi. Buning uchun mutasaddi idoralar va banklar ishtirokida Respublika shtabi tashkil etiladi. Shtab vakillari joylarga chiqib, ikki hafta muddatda korxonalar faoliyatiga toʻsqinlik qilayotgan masalalarni aniqlaydi va ularni joyida hal etish choralarini koʻradi.

Faoliyatini tiklash imkoniyati mavjud korxonalarga zarur kredit mablagʻlarini ajratish, aylanma mablagʻ

bilan taʼminlash, infratuzilma hamda xomashyo masalalarini hal etish boʻyicha banklar va masʼul idoralar birgalikda ishlaydi.

Taqdimotda tijorat banklari balansidagi yirik mol-mulklar masalasiga ham eʼtibor qaratildi.

Bugungi kunda banklar balansida qiymati 10 milliard soʻmdan yuqori boʻlgan 70 ta mol-mulk mavjud. Mazkur aktivlarni iqtisodiyotga qayta jalb qilish, ularga investor topish va ishlab chiqarish maydonlariga aylantirish boʻyicha alohida mexanizmlarni joriy etish belgilandi.

Taqdimotda investitsiya dasturlari doirasida ishga tushirilgan loyihalar faoliyatini hisobga olish va ularning natijadorligini baholash masalasiga toʻxtalib oʻtildi. 2021 – 2025-yillarda amalga oshirilgan qariyb 17 mingga loyiha natijasida ishga tushgan korxonalarning ayrimlari oʻz faoliyatini soliq va statistika hisobotlarida toʻliq aks ettirmayotgani koʻrsatib oʻtildi. Mutasaddilarga har bir loyihani oʻrganib, ularni soliqqa tortish va statistika hisobotlarida toʻgʻri aks ettirishni taʼminlash topshirildi.

Ishbilarmonlik muhitiga salbiy taʼsir koʻrsatayotgan hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining eʼtirozlariga va mavjud muammolarni ayrim masalalar hamda ularning yechimi boʻyicha takliflar koʻrib chiqildi.

Xususan, tadbirkorlik subyektlarining peshlavhalari va brend belgilarini joylashtirish, umumiy ovqatlanish va savdo obyektlari uchun ayrim maʼmuriy talablar, mehnat munosabatlariidagi tartib-taomillar, naqd pulsiz toʻlovlar, soliq imtiyozlarini qoʻllash, moliyaviy jarimalar, tashqi iqtisodiy faoliyatdagi hujjatbozlik kabi masalalar muhokama qilindi.

Masalan, amaldagi tartibga koʻra, ayrim hollarda korxona nomi, faoliyat turi yoki savdo belgisi aks etgan peshlavhalar ham reklama sifatida baholalanib, ular uchun alohida pasport

rasmiylashtirish va toʻlovlarni amalga oshirish talab etilmoqda. Bu tadbirkorlar uchun qoʻshimcha maʼmuriy yuk boʻlishi bilan birga savdo va xizmat koʻrsatish obyektlarining tanilishi, mijozlar oqimi va tushumiga ham taʼsir koʻrsatmoqda.

Shu munosabat bilan tadbirkorlik subyektlarining nomi hamda faoliyat turi toʻgʻrisida binoga joylashtirilgan axborotni reklama sifatida baholamaslik va buning uchun tegishli pasportlarni rasmiylashtirishni bekor qilish taklif etildi. Reklamalar va boshqa axborot belgilarini joylashtirishga doir dizayn talablarini tadbirkorlar takliflarini inobatga olgan holda bosqichma-bosqich joriy etish, yuridik shaxslarga tegishli transport vositalariga oʻz savdo belgisini joylashtirish tartibini soddalashtirish tashabbusi ilgari surildi.

Umumiy ovqatlanish korxonalariga qoʻshilgan qiymat soligʻining bir qismini qaytarish tartibini soddalashtirish, ayrim savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat koʻrsatish obyektlari uchun ekologik ekspertiza hamda kompensatsiya toʻlovlari bilan bogʻliq tartiblarni yengillashtirish taklif etildi. Shuningdek, mehnat munosabatlariidagi ish beruvchi va xodim oʻrtasidagi ayrim tartib-taomillarni aniqlashtirish taklif qilindi.

Raqamlashtirish va naqd pulsiz toʻlovlar yoʻnalishida aholi va biznes uchun qulaylikni oshirishga qaratilgan takliflar bildirildi. Xususan, ayrim tovar hamda xizmatlar uchun toʻlovlarni naqd pulsiz shaklda amalga oshirish amaliyoti kengayib borayotgani bois, bank infratuzilmasi, komissiyalar va isteʼmolchilarga qaytariladigan keshbek tizimini takomillashtirish zarurligi qayd etildi.

Jismoniy shaxslarning oʻz bank kartalari oʻrtasidagi pul oʻtkazmalarini komissiyasiz amalga oshirish, naqdsiz toʻlovlarni aholi uchun qulay boʻlgan shakllarini koʻpaytirish, umumiy ovqatlanish, alkogol, tamaki va yoqilgʻi

soʻtish sohaslarida xarid cheki boʻyicha hisoblangan keshbekni tezkor qaytarish imkoniyatini yaratish taklif etildi. Shu bilan birga, bank kartalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarda xavfsizlikni taʼminlash maqsadida joriy etilgan antifrod SMS-xabarnomalar boʻyicha xarajatlarni qayta koʻrib chiqish, mobil ilovalardagi xabarnomalar yoki biometrik identifikatsiya kabi muqobil yechimlardan foydalanish taklif qilindi.

Soliq maʼmurchiligi va moliyaviy jarimalar yoʻnalishida soliq imtiyozlarini qoʻllashda yuzaga kelayotgan nizoli holatlarni bartaraf etish, soliq qarzdorligi boʻyicha hisoblanayotgan penya asosiy qarz summasidan oshib ketmasligi boʻyicha normani joriy etish, chek bermaslik holati yuzasidan xabar yuborish tizimini suiisteʼmol qilish holatlarining oldini olish, QQS guvohnomasini toʻxtatish tartibini takomillashtirish ilgari surildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni soddalashtirish maqsadida import jarayonida bir-birini takrorlovchi hujjatlarni qisqartirish, tadbirkorlarga xorijda savdo uylari, filial va vakolatxonalari ochish uchun qulayroq tartib yaratish, "Oʻzbekspomarkaz" imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda milliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarda keng targʻib qilish boʻyicha takliflar bildirildi.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlik uchun ortiqcha toʻsiqlarni kamaytirish, nazorat va tartibga solish mexanizmlarini soddalashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini biznesga qoʻshimcha yuk emas, qulaylik yaratadigan vositaga aylantirish zarurligini taʼkidladi.

Mutasaddilarga mavjud sanoat quvvatlarini toʻliq ishga solish, korxonalarni moliyaviy sogʻlomlashtirish, ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish, yangi ish oʻrinlari yaratish hamda tadbirkorlar uchun qulay sharoitlarni kengaytirish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

OʻzA.

Oʻzbekiston – Malayziya:

ILMIY-MAʼRIFIY ALOQALAR KENGAYMOQDA

Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Malayziya bilan hamkorlikda "Islom sivilizatsiyasida ilmiy anʼana: manbalar, imkoniyatlar va dolzarb masalalar" mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya boʻlib oʻtdi.

Biz va jahon

U ikki mamlakat oʻrtasida ilmiy-maʼrifiy aloqalarni yanada boyitish, buyuk ajdodlarimiz yaratib qoldirgan maʼnaviy merosni hamkorlikda tadqiq qilish va ommalashtirish masalalariga bagʻishlandi.

Konferensiyada Malayziya qirolichasi Raja Zarita Sofiya hazrati oliyalari ham ishtirok etdi.

Taʼkidlanganidek, Oʻzbekiston va Malayziya aloqalari olis ilbizlarga ega. Buyuk Ipak yoʻli har ikki mintaqani asrlar davomida bogʻlab kelgan. Imom Buxoriy, Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino singari allomalimiz asarlari Malayziya hududiga yuz yillar avval kirib borgan, taʼlim maskanlarida oʻqitilgan.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Malayziya Oliy hukmdori Sulton Ibrohim Ismoil rahnamoligida ikki doʻst davlat oʻrtasidagi tarixiy aloqalar yangi bosqichga koʻtarildi.

Davlatimiz rahbarining gʻoya va tashabbuslari bilan barpo etilgan Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat yurtimizda, balki butun mintaqada islom tamadduni va Sharq madaniy merosini oʻrganishga ixtisoslashtirilgan yirik ilmiy-maʼrifiy markaz sifatida shakllanmoqda.



KUN TARTIBIDA – KELAJAKKA DAXLDOR MASALALAR

Samarqand shahrida "Taraqqiyot chorrahasi: mintaqaning oʻzaro bogʻliq kelajagini ilgari surish" mavzuida Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yigʻilishi davom etmoqda.

Anjuman

Tadbir davlat organlari vakillari, xususiy sektor yetakchilari, rivojlanish boʻyicha hamkorlar hamda innovatorlarni bir maydonga jamlab, mintaqaviy oʻzaro bogʻliqlik, raqamli innovatsiyalar va rivojlanishni moliyalashtirish sohaslarida amaliy yechimlarni muhokama qilishga qaratilgan.



HAMKORLIKNING YANGI UFQLARI

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi oʻrinbosari Sodiq Safoyev Pokiston Islom Respublikasining Oʻzbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Ahmad Faruk bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Uchrashuv

Muloqotda Oʻzbekiston va Pokiston oʻrtasidagi ikki tomonlama aloqalar soʻnggi yillarda jadal rivojlanib, strategik sheriklik yangi bosqichga koʻtarilayotgani taʼkidlandi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalariga alohida urgʻu berilib, mazkur jarayonda parlamentlarning oʻrni muhim ekani qayd etildi.

Shuningdek, ikki davlat oʻrtasidagi oʻzaro manfaatli sheriklikni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi parlamentlararo muloqotni kuchaytirish masalalari koʻrib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va transport-logistika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish istiqbollariga alohida eʼtibor qaratildi. Madaniy-gumanitar aloqalarni, taʼlim, turizm va ilm-fan yoʻnalishidagi sheriklikni yanada rivojlantirish masalalari ham muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida Oʻzbekiston va Pokiston oʻrtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanishiga, ikki davlat xalqlari manfaatlarini yoʻlida belgilangan rejalar faol amalga oshirilishiga ishonch bildirildi.

“Xalq soʻzi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

DOLZARB QONUN LOYIHALARI MUHOKAMADA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi boʻlib oʻtdi. Unda texnik jihatdan tartibga solish tizimini yanada takomillashtirishga, sudlarning yuklamasini kamaytirishga, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritishga, faxriylarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishning tashkiliy, iqtisodiy hamda huquqiy asoslarini belgilashga, kambagʻallikni qisqartirish va bandlik sohasida yaxlit tizimni shakllantirishga qaratilgan qonun loyihalari muhokama qilindi.

Faxriylarning huquq va manfaatlarini mustahkamlanmoqda

Majlisda dastlab "Faxriylar toʻgʻrisida"gi qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi. Ushbu masala boʻyicha Mudofaa vaziri Sh. Xolmuhamedov maʼruza qildi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda faxriylar, ayniqsa, Vatanimiz va xalqimiz taraqqiyoti uchun butun umrini baxshida qilgan keksa avlod vakillari doimiy va tizimli qoʻllab-quvvatlab kelinmoqda.



Toshkent – Xiva – Toshkent yoʻnalishida "Jaloliddin Manguberdi" poyezdi qatnovi yoʻlga qoʻyildi.

Xushxabar

Davlatimiz rahbarining "Oʻzbekiston Respublikasi temir yoʻl transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qaroriga asosan, "Oʻzbekiston temir yoʻllari"

aksiyadorlik jamiyati tizimida keng koʻlamli transformatsiya ishlari amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning 5-may kundan boshlab xalqimiz uzoq kutgan yuqori tezlikda

harakatlanadigan zamonaviy "Jaloliddin Manguberdi" yoʻlovchi poyezdi "Toshkent-Markaziy" vokzalidan Xorazm viloyatining Xiva shahriga ilk qatnovini rasman boshladi.



TURKIYANING “BUYUK BIRLIK” PARTIYASI RAISI YUQORI PALATADA

Oliy Majlis Senati Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi raisi, “Oʻzbekiston – Turkiya” parlamentlararo hamkorlik guruhi hamrais Alisher Agzamxoʻjayev Turkiya Respublikasi “Buyuk Birlik” partiyasi raisi Mustafa Destiji bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Muloqot

Unda ikki mamlakat oʻrtasida parlamentlararo, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sheriklikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va oʻzaro ishonchga asoslangan aloqalari natijasida Oʻzbekiston – Turkiya hamkorligi strategik sheriklik darajasiga koʻtarilib, soʻnggi yillarda doʻstona aloqalar, jumladan, parlamentlararo

muloqot barcha sohada izchil rivojlanib borayotganiga alohida urgʻu berildi.

Yakunda parlamentlararo hamkorlikni yanada faollashtirish, joriy yil aprel oyida Istanbul shahrida Oliy Majlis Senati va Turkiya Buyuk Millat Majlisi oʻrtasida imzolangan 2026-2027-yillarga moʻljallangan “Yoʻl xaritasi” bandlarini bajarishda hamkorlik qilishga kelishildi.

Oʻrganish

TAʼLIM VA INFRATUZILMA DOIMY EʼTIBORDA

Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasida doimiy asosda ishlovchi senator Gulnora Marufova Toshkent shahrining Yangiheyot tumanida boʻlib, hududdagi muammolarni oʻrgandi.

Dastlab senator tuman maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi tasarrufidagi 305 va 353-maktabgacha taʼlim tashkilotlariga tashrif buyurdi. Unda tarbiyalanuvchilar soni va ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar, bino-inshootlarning holati hamda taʼmirlash ishlari koʻzdan kechirildi. Aniqlangan muammolarni hal qilishda amaliy yordam koʻrsatish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Shuningdek, senator 8-umumtaʼlim maktabida boʻlib, taʼlim-tarbiya jarayoni bilan

tanishdi. Muassasada taʼlim sifatini yaxshilash boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan birga, mavjud muammolar muhokama qilindi. Maktab hududida qoʻshimcha oʻquv binosi qurish masalasi koʻrib chiqildi. Taʼkidlanganidek, ushbu loyiha 3 mingga yaqin oʻquvchilar tahsil olayotgan muassasada taʼlim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Oʻrganishlar yakunida masʼullarga tegishli tavsiyalar berildi.

“Xalq soʻzi”.

DOLZARB QONUN LOYIHALARI MUHOKAMADA



Bugungi kunda faxriylar uchun yaratilgan imtiyozlar turi normativ hujjatlarda belgilangan boʻlib, tarqoq holda amalga oshirilmogda. Bu holat ushbu yoʻnalishdagi ishlarni yagona tizimga mujassamlashtirishni talab etyapti.

Qonun loyihasi bilan faxriylar maqomi, toifalari hamda masʼul vazirlik va idoralarning vakolatlari belgilanmogda. Shuningdek, faxriylarning huquqiy va ijtimoiy himoyasi, imtiyoz hamda kafolatlari mustahkamlanmogda.

Loyihaga koʻra, muayyan bir soha, tarmoq yoki kasbda uzoq yillar mobaynida vijdonan namunali mehnat qilish orqali davlat hamda jamiyat eʼtirofiga sazovor boʻlgan jismoniy shaxslarga faxriy maqomi beriladi.

Mazkur maqomni olgan fuqarolar sanatoriy-kurort va sogʻlomlashtirish muassasalarida bepul davolanish, uy-joy kommunal xizmatlar haqini toʻlash boʻyicha kompensatsiya toʻlovlarini olish, soliq va pensiyaga oid imtiyozlardan foydalanish kabi qator huquqlarga ega boʻladi.

Shuningdek, faxriylarning ambulator davolanishda dori vositalari bilan imtiyozli taʼminlanishi, madaniyat va koʻngilochar muassasalar (sport, teatr, moddiy madaniy meros obyektlari) hamda muzeylarning pullik xizmatlaridan imtiyozli foydalanishi belgilanmogda.

Faxriylarga beriladigan barcha imtiyoz va kafolatlar qonun bilan belgilanib, ularni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash yanada mustahkamlanadi. Faxriylarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish sohasidagi vakolatlar tartibga solinadi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qator savollar koʻtarildi. Ayrim fikr-mulohazalar bildirildi.

Shuhrat YOQUBOV,
“Adolat” SDP fraksiyasi aʼzosi:

– Qonun loyihasida faxriylarning 6 ta toifasi nazarda tutilgan boʻlib, jumladan, “mehnat faxriylari” instituti kiritilgan. Biroq 12-moddada belgilangan talablar (davlat mukofotlari, koʻkrak nishoni, pensiyaga ustama olish kabi mezonlar) mazkur toifaga kirish doirasini sezilarli darajada cheklab qoʻymoqda. Bu holat qonunning ijtimoiy

davlat va jamiyat rivojiga munosib hissa qoʻshgan shaxslarga vakolatli organlar xulosasi asosida berilishi mumkin”. Mazkur yondashuv hujjatning qamrov doirasini kengaytiradi, ijtimoiy adolatni taʼminlaydi hamda amalda faxriylik institutining mazmun-mohiyatini toʻliqroq ochib berishga xizmat qiladi.

Majlisda koʻtarilgan savollarga qonun loyihasiga masʼullar tomonidan atroflicha izoh berildi.

Muhokamalardan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Qonunchilik xalqaro standartlarga moslashtiriladi

Deputatlar texnik tartibga solish sohasini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi oʻqishda moddama-moddam muhokama qildi. Ushbu hujjat sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, tadbirkorlik

faoliyatini qoʻllab-quvvatlash hamda milliy tizimni xalqaro standartlarga moslashtirishni nazarda tutadi.

Qonun loyihasi bilan “Metrologiya toʻgʻrisida”, “Standartlashtirish toʻgʻrisida”, “Texnik jihatdan tartibga solish toʻgʻrisida” hamda “Muvofiglikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish toʻgʻrisida”gi qonunlarga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmogda.

Loyihada oʻlchash vositalarini qiyoslash amaliyotini bosqichma-bosqich verifikatsiya qilish jarayoni bilan almashtirish belgilanmogda. Yaʼni har bir oʻlchash vositasi maxsus talablarga qanchalik aniq javob berishini yanada puxta va xalqaro qoidalar asosida tekshirish tizimi joriy etilyapti.

Bunday tekshiruvlarni oʻtkazadigan tashkilotlar uchun esa “avtorizatsiya”, yaʼni rasman ruxsat berish tizimi yaratilyapti. Bu orqali endi har qanday tashkilot emas, balki davlat tomonidan maxsus talablarga javob beradigan ishonchli tashkilotlarga oʻlchash vositalarini verifikatsiya qilish huquqiga ega boʻladi.

Yangi tartibga koʻra, endi standartlar asosan ixtiyoriy boʻladi. Davlat nazorati va moliyaviy jazolarga oid ayrim normalar bekor qilinishi orqali tadbirkorlar uchun

qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga, “korxona standarti” tushunchasi joriy etilib, biznes subyektlariga oʻzi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun standartlar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Muqaddasxon AHMEDOVA,
Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi aʼzosi:

– Hujjat bilan tadbirkorlarni qiynab kelgan ayrim ortiqcha talablar bekor qilinadi. Masalan, mahsulotlarni majburiy roʻyxatdan, baʼzi hujjatlarni esa qayta roʻyxatdan oʻtkazish talabi olib tashlanadi. Jarimalar ham xavf darajasiga qarab qayta koʻrib chiqiladi.

Qonun loyihasi bilan akkreditatsiya tizimi ham takomillashtirilib, xalqaro standartlarga moslashtirilmogda. Bu Oʻzbekistonda berilgan sertifikatlarning

XALQ DIPLOMATIYASINING YORQIN NAMUNASI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi aʼzosi Jamila Bobonazarova Toshkent shahrida oʻtkazilgan “Birodar shaharlar – 2026” birinchi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etdi.

Jarayon

Mazkur nufuzli tadbirda 10 dan ortiq xorijiy davlatlar shahar maʼmuriyatlari rahbarlari, Oʻzbekistonda akkreditatsiyadan oʻtgan diplomatik korpus vakillari, xalqaro tashkilotlar, davlat va jamoat tuzilmalari, oliy taʼlim muassasalari vakillari, shuningdek, yetakchi xalqaro ekspertlar qatnashdi. Anjumanda hududlararo hamkorlikni

kengaytirish, xorijiy shahar va tumanlar bilan doʻstlik aloqalarini mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar munosabatlarni rivojlantirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Ekologiya, turizm, taʼlim va innovatsiyalar sohalarida qoʻshma tashabbuslarni amalga oshirish, ilgʻor tajribalar almashish va barqaror rivojlanishni taʼminlashga qaratilgan takliflar ilgari surildi.

Taʼkidlanganidek, “birodar shaharlar” instituti xalq diplomatiyasining samarali vositasi boʻlib, u mamlakatlar va xalqlar oʻrtasida oʻzaro ishonchni mustahkamlash, madaniy yaqinlikni oshirish hamda iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Anjuman doirasida “Birodar shaharlar – xalq diplomatiyasining yorqin namunasi” mavzuida xalqaro konferensiya, milliy hunarmandchilik koʻrgazmasi hamda mahalliy va xorijiy shaharlar oʻrtasida hamkorlik va birodarlik toʻgʻrisidagi bitimlarni imzolash marosimlari oʻtkazildi.

Qayd etilganidek, imzolanayotgan kelishuvlar va yoʻlga qoʻyilayotgan yangi sheriklik munosabatlari hududlararo hamkorlikni yanada faollashtirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va turli sohalardagi oʻzaro aloqalarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Anjuman yakunida ishtirokchilar “birodar shaharlar” formatini yanada kengaytirish, uning institutsional asoslarini mustahkamlash hamda amaliy natijadorligini oshirish boʻyicha hamkorlikni izchil davom ettirishga tayyor ekanliklarini bildirdi.

“Xalq soʻzi”.

KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV AMALIYOTIGA ZAMONAVIY YONDASHUV

Turkiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi delegatsiyasining Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga tashrifi doirasida “Oʻzbekiston va Turkiya Respublikalari Konstitutsiyaviy sudlari: zamonaviy konstitutsiyaviy odil sudlov amaliyoti, tizimli rivojlanish va xalqaro hamkorlik” mavzuida xalqaro davra suhbatlari oʻtkazildi.

Davra suhbatlari

Tadbirni Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi M. Abdulomomov kirish soʻzi bilan ochib, mazkur muloqot ikki davlat konstitutsiyaviy sudlari oʻrtasida umumiy huquqiy qadriyatlar, ustuvor tamoyillar va zamonaviy yondashuvlarni atroflicha muhokama qilish uchun muhim platforma ekanini taʼkidladi.

Qayd etilganidek, zamonaviy sharoitda konstitutsiyaviy sudlar zimmasidagi vazifalar yanada dolzarb ahamiyatga ega. Raqamlashtirish jarayonlari, globalashuv, yangi huquqiy munosabatlar va jadal ijtimoiy oʻzgarishlar sud hokimiyatidan innovatsion

yondashuvlarni talab qilayotir. Shu nuqtayi nazardan, tizimli rivojlanish nafaqat institutsional islohotlarni amalga oshirish, balki huquqiy tafakkurni yangilash, sud qarorlari sifatini oshirish hamda ularning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirishni ham nazarda tutadi.

Xalqaro hamkorlik mazkur jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sudlar oʻrtasidagi muloqot va tajriba almashish ham amaliy jihatdan foydali boʻladi, shuningdek, inson huquqlari sohasida umumeʼtirof etilgan standartlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maʼlumot uchun aytish kerakki, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi 2026-2027-yillarda

Osiyo konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlar assotsiatsiyasiga raislik qilmoqda. Turkiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi esa boy tarixiy tajribaga ega boʻlib, Yevropa hamda Osiyo huquqiy anʼanalari tutashgan nuqtada shakllangan yetakchi konstitutsiyaviy nazorat organi hisoblanadi. Turkiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan amaliy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va uni yangi bosqichga olib chiqish har ikki tomon uchun oʻzaro manfaatlidir.

Davra suhbatida zamonaviy konstitutsiyaviy odil sudlov amaliyoti, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning dolzarb yoʻnalishlari yuzasidan fikr almashildi. Muhokamalar natijalari esa ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish, qoʻshma tashabbuslarni ilgari surish hamda konstitutsiyaviy odil sudlov sohasida tajriba almashishni kengaytirish uchun mustahkam asos yaratadi.

“Xalq soʻzi”.

Mehnat munosabatlari soddalashtirilmogda

Mehnat munosabatlari takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi oʻqishda obdan muhokama etildi. Hujjat yuzasidan kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirining birinchi oʻrinbosari M. Joʻrayev maʼruza qildi.

Mazkur hujjat bilan amaldagi qonunchilikka qator oʻzgartirish va



deputatlar koʻtargan masalalarga eʼtibor qaratilishi qayd etildi.

Muhokamalardan soʻng qonun loyihasi birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Bojxona nazoratini chetlab oʻtishga qarshi javobgarlik kuchaytiriladi

Deputatlar tomonidan koʻrib chiqilgan navbatdagi hujjat –“Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga davlat chegarasini qoʻriqlash hamda himoya qilishni yanada kuchaytirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi boʻldi.

Hujjat aholi tinchligi, mamlakatimiz xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligini mustahkam himoya qilish choralari yanada kuchaytirishga qaratilgan.

Qonun loyihasi bilan davlat chegarasi orqali tovar-moddiy boyliklar, xorijiy valyuta, qimmatbaho metallar va boshqa predmetlarni noqonuniy olib oʻtish, bojxona nazoratini chetlab oʻtish bilan bogʻliq javobgarlik kuchaytirilmogda. Xususan, davlat chegarasi orqali yer ostida noqonuniy qurilgan inshootlar, tunnellar yoki boshqa infratuzilmadan foydalanilgan holda bojxona toʻgʻrisidagi qonunchilikni buzish ogʻirlashtiruvchi holat sifatida belgilanayotir.

Shu bilan birga, davlat chegarasi orqali yer ostida noqonuniy qurilgan inshootlar va tunnellardan foydalanilgan holda qonunga xilof ravishda chet elga chiqish, Oʻzbekiston Respublikasiga kirish yoki davlat chegarasidan oʻtish uchun ham javobgarlik kuchaytirilyapti.

Qonun loyihasida davlat chegarasi orqali yer ostida noqonuniy inshootlar va tunnellar qurish, infratuzilma barpo qilish, ulardan foydalanish hamda mazkur faoliyatni moliyalashtirish uchun ham alohida jinoyi javobgarlik joriy etilmogda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

q oʻ s h i m c h a l a r k i r i t i l m o q d a . Taʼkidlanganidek, qonun loyihasi mehnat munosabatlari rasmilashtirishni soddalashtirish, ortiqcha byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etish hamda xodimlarning huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan. Xususan, ishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlar roʻyxati qisqartirilmogda. Taklif etilayotgan tartibga koʻra, fuqaroni ishga

qabul qilishda, asosan, uning shaxsiy identifikatsiya raqami talab etiladi. Harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar esa harbiy guvohnoma yoxud harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnoma taqdim etishi lozim.

Qonun loyihasida mehnat jarayonida tazyiq va zoʻravonlikka qarshi kurashishga doir normalar ham oʻz aksini topgan. Jumladan, bunday holatlarni taqiqlash, ularning oldini olish va jabrlangan xodimlarni himoya qilish choralari belgilanmogda.

Bundan tashqari, ish beruvchi tomonidan ish haqi toʻlash muddati buzilgan taqdirda, har bir chekchiktilgan kun uchun pulli kompensatsiya toʻlash tartibi aniqlashtirilmogda.

Majlisda qonun loyihasi qizgʻin muhokamalarga sabab boʻldi. Deputatlar tomonidan qator savollar koʻtarildi.

Tuychi YOQUBOV,
OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzosi:

– Qonun loyihasi bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga kiritilayotgan 174-moddada Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligining “Yagona

milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar uchun mansabdor shaxslarning maʼmuriy javobgarligi nazarda tutilmogda. Ushbu tizimga maʼlumotlarni oʻz vaqtida kiritmaslik yoki notoʻgʻri kiritish, umuman, masʼullar tomonidan texnik amallarning oʻz vaqtida bajarilmasligi ish beruvchini maʼmuriy javobgarlikka tortishga asos boʻlishi qanchalik toʻgʻri?

Qonun loyihasiga masʼullar bu boʻyicha atroflicha tushuntirish berib oʻtdi.

Muhokamalardan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

Transport vazirligidan maʼlum qilinishicha, Toshkentning yangi xalqaro aeroporti qurilishi shu yil iyun oyida boshlanadi.

IQTISODIY INTEGRATSIYA IMKONIYATLARI

Samarqand shahrida oʻtkazilayotgan Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yigʻilishi zamonaviy xalqaro munosabatlar va iqtisodiy taraqqiyotda yangi bosqich boshlanayotganini anglatuvchi muhim voqea, desak, mubolagʻa emas. Mazkur forum global iqtisodiyotdagi chuqur oʻzgarishlar, geosiyosiy beqarorlik va texnologik inqilob sharoitida davlatlar oldida turgan ustuvor vazifalarni belgilab berishga xizmat qilmoqda.

Fikr



Ayni paytda dunyo miqyosida iqtisodiy oʻsishning anʼanaviy modellari oʻz ahamiyatini tobora yoʻqotib borayotir. Taʼminot zanjirlaridagi uzilishlar, energetik xavfsizlik muammolari va raqamli texnologiyalar taʼsirida jahon iqtisodiyoti qayta shakllanmoqda. Ana shunday sharoitda Samarqand forumi kabi yirik platformalar nafaqat muammolarni muhokama qilish, balki ularga amaliy yechim topish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Davlatimiz rahbari forumda ishtirok etib, oʻz nutqida Yangi Oʻzbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan xalqchil va hayotiy islohotlarning mohiyatiga urgʻu berdi.

Aytilganidek, islohotlarda asosiy eʼtibor har bir oila, har bir insonning kundalik hayotini yaxshilashga qaratilmoqda. Natijada oʻtgan davrda 8,5 million ehtiyojmand aholi daromadi oshirilib, kambagʻallik darajasini qariyb 35 foizdan bugungi kunda 5,8 foizga tushirishga erishildi.

Yani keyingi salkam 10 yil davomida Oʻzbekistondagi islohotlar faqat makroiqtisodiy koʻrsatkichlarni yaxshilashga emas, balki aholining real turmush darajasini oshirishga qaratilgan. Bu esa "inklyuziv oʻsish" deb ataladigan konsepsiyaga toʻliq mos keladi. Uning asosiy tamoyili – iqtisodiy rivojlanish samarasi jamiyatning barcha qatlamlariga teng qatnashishi kerak degani.

Soʻnggi yillarda 150 milliard dollarlik investitsiyalarning jalb qilinishi, eksport hajmining uch barobar oshishi va iqtisodiyot hajmining 147 milliard dollarga yetgani, albatta, muhim koʻrsatkichlardir. Ammo bu raqamlar ortidagi eng asosiy natija – aholi farovonligining oshgani.

Xoʻsh, bu natijaga qanday erishildi? Avvalo, iqtisodiyotni liberalashtirish va xususiy sektorni koʻllab-quvvatlash orqali yangi ish oʻrinlari yaratildi. Ikkinchidan, ijtimoiy himoya tizimi takomillashtirildi. Uchinchidan, taʼlim va kasb-hunar tayyorlash tizimi orqali inson kapitali rivojlanir.

Forumda raqamli transformatsiya va sunʼiy intellekt masalasiga alohida eʼtibor qaratildi. Mamlakatimizda ham sunʼiy intellekt xabini yaratish, data markazlarni kengaytirish va superkompyuterlarni ishga tushirish kabi tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Markaziy Osiyo – Yevropa "yashil energetika koridori" tashabbusi mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichini ifodalaydi. Bu loyiha nafaqat energiya yetkazib berishning yangi yoʻnalishlarini shakllantiradi, balki mintaqada davlatlarni global "yashil iqtisodiyot" zanjiriga toʻgʻridan-toʻgʻri integratsiya qilish imkonini ham yaratadi. Shu tariqa Markaziy Osiyo mamlakatlari faqat ichki energiya ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanib qolmay, balki qayta tiklanuvchi energiyani eksport qila oladigan strategik hududga aylanish sari qadam tashlaydi.

Transport va logistika masalalari ham forum doirasida markaziy yoʻnalishlardan biri sifatida koʻrib chiqildi. Bugungi global iqtisodiyotda savdo aloqalarining samaradorligi, avvalo, zamonaviy transport infratuzilmasining qay darajada rivojlanganiga bevosita bogʻliq. Chunki mahsulotning ishlab chiqaruvchidan isteʼmolchiga yetib borish muddati, xarajatlar darajasi va logistika zanjirining uzluksizligi umumiy iqtisodiy raqobatbardoshlikni belgilaydigan asosiy omillardan biriga aylangan.

Aynan shu nuqtayi nazardan qaraganda, Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston temir yoʻli loyihasi strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yoʻlak orqali Markaziy Osiyo mintaqasi Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi muhim tranzit koʻprigini mustahkamlash imkoniyatiga ega boʻladi. Loyiha amalga oshsa, yuk tashish masofasi va vaqti sezilarli qisqaradi, logistika xarajatlari esa kamayadi. Shu bilan birga, CAREC (Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi) doirasida "Raqamli bojxona va logistika alyansi"ni tashkil etish tashabbusi ham muhim institutsional islohot sifatida baholalanadi. Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi – bojxona jarayonlarini raqamlashtirish orqali ortiqcha maʼmuriy toʻsiqlarni qisqartirish, savdo operatsiyalarini tezlashtirish va shaffoflikni oshirishdan iborat.

Bu muammoni yaqqol misoli sifatida Orol dengizi inqirozi keltiriladi. Bir vaqtlar mintaqaning yirik suv havzasi boʻlgan Orolning qurishi nafaqat ekologik falokat, balki iqtisodiy tanazzul va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Yerlarning shoʻrlanishi, baliqchilik sohasining yoʻqolishi, aholi bandligi va turmush sharoitiga salbiy taʼsir – bularning barchasi ekologik masala ortida qanchalik keng qamrovli oqibatlar yotishini koʻrsatadi.

Qisqacha aytganda, Samarqand forumida ilgari surilgan tashabbuslar kompleks xarakterga ega boʻlib, iqtisodiyotning barcha asosiy sohalarni qamrab olgan. Eng muhimi, ular oʻzaro bogʻliq va bir-birini toʻldiruvchi yoʻnalishlardan iborat.

Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda ushbu tashabbuslarni amalga oshirish uchun moliyaviy va institutsional asoslar yaratilmoqda. Agar mazkur gʻoyalar izchil amalga oshirilsa, Oʻzbekiston va butun Markaziy Osiyo yaqin yillarda barqaror hamda jadal rivojlanayotgan mintaqalardan biriga aylanadi.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati aʼzosi.

Ochiq va barqaror taraqqiyot yoʻli

Prezidentimizning Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining yillik yigʻilishidagi nutqi mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichi, uning ustuvor yoʻnalishlarini chuqur va atroflicha ochib berdi. Mazkur nufuzli anjumaning yuritimizda oʻtkazilishi, avvalo, Oʻzbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi obroʻ-eʼtibori ortib borayotganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosatning amaliy natijasi, deyish mumkin. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi aʼzolarining fikr-mulohazalari shu haqda.

Aks sado

Xalqaro hamkorlik va islohotlar uygʻunligi

Firdavs QURBONOV,
qoʻmita aʼzosi:

– Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan strategik tashabbuslar, xususan, raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, sunʼiy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish, innovatsion infratuzilmani shakllantirish kabi yoʻnalishlar mamlakatimiz raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu borada "Besh million sunʼiy intellekt yetakchilari"ni tayyorlash kabi tashabbuslar kelajakka qaratilgan uzoq muddatli investitsiya sifatida qaralishi zarur.

Shuningdek, "yashil" energetikani rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushini oshirish boʻyicha belgilangan vazifalar global iqlim oʻzgarishlari sharoitida dolzarb ahamiyatga ega. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni taʼminlash, balki iqtisodiyotning yangi drayverlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Nutqda ilgari surilgan yana bir muhim yoʻnalish – transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, yangi xalqaro yoʻlaklarni shakllantirish masalasi. Xususan, Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston temir yoʻli kabi yirik loyihalar butun mintaqada uchun strategik ahamiyatga ega boʻlib, savdo-iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqadi.

Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasida hamkorlikni chuqurlashtirish, yagona iqtisodiy va turistik makon yaratish boʻyicha bildirilgan takliflar ham alohida eʼtiborga molik. Bu tashabbuslar mintaqada barqarorligi, xavfsizligi va farovonligini taʼminlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Biz, deputatlar uchun mazkur islohotlar va tashabbuslarni qonunchilik jihatidan har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning samarali amalga oshirilishini taʼminlash ustidan parlament nazoratini kuchaytirish ustuvor vazifadir. Shuningdek, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, innovatsiyalarni ragʻbatlantirish va xususiy sektorni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan qonunlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Yangi strategik yoʻnalish

Otobek MUSURMONOV,
qoʻmita aʼzosi:

– Davlatimiz rahbarining Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining yillik yigʻilishidagi nutqi mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining yangi bosqichga koʻtarilganini yaqqol namoyon etdi. Bu nafaqat xalqaro maydondagi pozitsiyamizni belgilab berdi, balki Yangi Oʻzbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot modeli, ustuvor yoʻnalishlari va global iqtisodiy jarayonlarga munosabatini aniq ifoda qildi.

Global xavf-xatarlar sharoitida iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Logistika zanjirlaridagi uzilishlar, energiya resurslariga talabning ortishi va iqlim oʻzgarishi kabi omillar yangi yondashuvlarni talab qilayotir. Shu nuqtayi nazardan, "yashil" energetika, transport koridorlari va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslar strategik ahamiyatga ega.

Xususan, Markaziy Osiyo – Yevropa "yashil" energetika koridori, raqamli logistika tizimlari va yangi transport yoʻlaklari boʻyicha ilgari surilgan takliflar nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy jihatdan ham muhim. Mazkur tashabbuslar Oʻzbekistonn mintaqada muhim tranzit va energetik markazga aylantirish imkonini beradi.

"Xalq soʻzi".

SAMARQAND TASHABBUSLARI MINTAQAMIZ QIYOFASINI OʻZGARTIRADI

Osiyo taraqqiyot banki Oʻzbekistonning eng yirik hamkorlaridan biri hisoblanadi. OTB va Oʻzbekiston oʻrtasidagi hamkorlik qariyb 35 yillik tarixga ega. Bu davrda infratuzilmani rivojlantirishga, xususan, yoʻl qurilishi, energetika, elektr tarmoqlari, suv xoʻjaligi va boshqa muhim yoʻnalishlarga katta eʼtibor qaratildi.

Nuqtai nazar

Samarqand shahrida boʻlib oʻtayotgan Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yigʻilishi OTBning barcha ishtirokchilari va hamkorlari uchun Oʻzbekistondagi bugungi vaziyatni yaxshiroq anglashga xizmat qiladigan muhim maydon boʻldi. Bu hamkorlikning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish va kelgusi loyihalarni birgalikda rejalashtirish uchun zamin yaratadi. Natijada OTB hamda Oʻzbekiston oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik kelajakda qanday rivojlanishi kerakligi haqida yanada aniqroq tasavvur shakllanadi.

Raqamlarga eʼtibor bering: keyingi besh yil ushbu nufuzli moliyaviy tuzilma mamlakatimizga samarali loyihalarni moliyalashtirish uchun 5,4 milliard dollar ajratgan. Hukumat va boshqa hamkorlar bilan birga bank "yashil" iqtisodiyotga oʻtish, xususiy sektorni rivojlantirish va inson kapitaliga yoʻnaltirilayotgan sarmoyada Prezidentimiz ushbu nufuzli yigʻilishda ishtirok etib, oʻz nutqida oʻta muhim va dolzarb tashabbuslarni ilgari surdi. Mintaqaviy bogʻliqlikni yangi bosqichga olib chiquvchi, sunʼiy intellektidan tortib "yashil" energetikagacha boʻlgan keng qamrovli tashabbuslar mintaqaning global iqtisodiyotdagi rolini tubdan oʻzgartirishga qaratilgan bilan ahamiyatli.

Ilgari surilgan inqilobiy takliflar

Oʻzbekiston banking "Osiyo uchun raqamli magistr" tashabbusiga qoʻshilish barobarida, Toshkentda uning mintaqaviy muvofiqlashtirish markazini ochishni taklif etdi. Bu qadam Oʻzbekistonning mintaqaviy texnologik



liderlikka intilishini va raqamli iqtisodiyotga oʻtish strategik ustuvorlik ekanini anglatadi.

Oʻzbekiston energetika sohasida ulkan maqsadlarni belgiladi. 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda. Biroq eng muhim geosiyosiy loyiha, bu Markaziy Osiyo – Yevropa yashil energetika koridoridir. Ushbu "energetik arteriya" mintaqada ishlab chiqarilgan toza energiyani global bozorlarga eksport qilish imkonini beradi va Markaziy Osiyoni Yevropaning energiya xavfsizligi tizimiga integratsiya qiladi. Xalqaro logistikadagi murakkabliklar sharoitida Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston temir yoʻli qurilishi hayotiy zaruratga aylandi. Ushbu loyiha yuklarni yetkazib berish muddatini 10 kungacha qisqartiradi. Bundan tashqari, "Raqamli bojxona va logistika alyansi"ning tashkil etilishi chegaralardagi byurokratiyani kamaytirib, savdo aylanmasini bir necha barobar oshiradi.

Yana bir jihat. Oʻzbekiston faqat foydali qazilmalarni sotish bilan cheklanmoqchi emas. Prezidentimiz OTBning "Kritik mineraldan – ishlab chiqarishga" dasturiga qoʻshilish muhimligini qayd etdi. Maqsad mineralarni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qoʻshilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar chiqarishdan iborat. Bu iqtisodiyotni xomashyo qaramligidan qutqarish hamda yuqori texnologik sanoatni rivojlantirish degani.

Iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashda "Markaziy Osiyo yashil belbogʻi" loyihasi mintaqaviy ekotizimni himoya qilishga qaratilgan boʻlsa, "Markaziy Osiyo turizm halqasi" tashabbusi

mintaqani yagona sayyohlik brendi ostida birlashtiradi. Ziyorat, madaniy va gastronomik obyektlarni oʻz ichiga olgan bu halqa mintaqaning iqtisodiy jozibadorligini oshirishda muhim drayver boʻladi. Ushbu ulkan loyihalarni hayotga tatbiq qilish uchun davlatimiz rahbari Innovatsion moliyalashtirish platformasini shakllantirishni taklif etdi. Bu tizim xususiy kapitalni safarbar qilish va mintaqaviy loyihalarni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini yaratish imkonini beradi.

Samarqandda bildirilgan takliflar shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston Markaziy Osiyoni yagona iqtisodiy, raqamli hamda energetik makon sifatida koʻrmoqda. Tashabbuslar OTB bilan hamkorlikda amalga oshirilsa, mintaqada nafaqat oʻz muammolarini hal qiladi, balki global

"Nufuzli sammit faqat Oʻzbekiston uchun emas, aksincha, butun Osiyo mintaqasi uchun strategik ahamiyatga ega voqelik sifatida tarixga kirdi. Yigʻilishning bosh mavzusi – "Taraqqiyot chorrahalar: mintaqaning oʻzaro bogʻliq kelajagini ilgari surish" deb nomlandi.

barqarorlik va taraqqiyotning ajralmas boʻlagiga aylanadi.

Eng maqbul xalqaro platforma

Taʼkidlash joizki, nufuzli sammit faqat Oʻzbekiston uchun emas, aksincha, butun Osiyo mintaqasi uchun strategik ahamiyatga ega voqelik sifatida tarixga kirdi. Yigʻilishning bosh mavzusi – "Taraqqiyot chorrahalar: mintaqaning oʻzaro bogʻliq kelajagini ilgari surish" deb nomlandi. Bu bejiz emas. Global geosiyosiy hamda iqtisodiy oʻzgarishlar davrida logistika zanjirlarini tiklash va davlatlar oʻrtasidagi iqtisodiy bogʻliqlikni kuchaytirish eng ustuvor vazifaga aylandi. Samarqand forumi ushbu muammolarni muhokama etish uchun eng maqbul xalqaro platforma boʻlib xizmat qiladi.

Besh kunlik sammit oʻz koʻlami va ishtirokchilar tarkibi bilan ajralib turadi. 100 dan ortiq mamlakatlar



Tadbinning navbatdagi kun dasturi doirasida qator sessiyalar tashkil etildi. Jumladan, "Raqamli infratuzilma – Osiyo va Tinch okeani mintaqasida iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik va inklyuzivlikning asosiy omili" mavzuidagi seminarlar raqamli infratuzilma va texnologiyalarni joriy etish, investitsiya ehtiyojlari, moliyalashtirishdagi boʻshliqlar hamda sohaviy siyosat masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonidagi texnik va tartibga solish toʻsiqlari, kiberxavfsizlik hamda iqlimga chidamlilik masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

"Ishtirokdan masʼuliyatga: ayollar va yoshlarni oqilona boshqaruvga jalb qilish" mavzuidagi sessiyada ochiq maʼlumotlar hamda ochiq boshqaruv orqali fuqarolik jamiyati ishtiroki, jumladan, ayollar va yoshlar faolligini oshirish masalalari koʻrib chiqildi.

"Markaziy Osiyo mintaqaviy

Soʻz – tadbir ishtirokchilariga

Masato KANDA, Osiyo taraqqiyot banki prezidenti:

– Mazkur sessiyalarda koʻtarilgan masalalar juda jiddiy. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida bardoshli va inklyuziv oʻsishni taʼminlash uchun transchegaraviy oʻzaro bogʻliqlikni yanada kuchaytirish zarur. "Birgalikda rivojlanish uchun birgalikda harakat qilish" tamoyili bugungi kunning asosiy talabidir. Jahondagi fragmentatsiya jarayonlari sharoitida anʼanaviy va yakkalangan yondashuvlar samara bermaydi. Shu bois chuqur integratsiyalashgan hamda bardoshli tizimlarni shakllantirish muhim. Energetika, logistika va raqamli tarmoqlardagi silkinishlar barcha mintaqalarga taʼsir koʻrsatmoqda. Bu esa milliy chegaralardan tashqari chiqadigan muvofiqlashtirilgan mintaqaviy yechimlarni talab qiladi.

OTB ushbu chaqiriqlarga javoban investitsiyalarni kengaytirib, islohotlarni jadallashtirmoqda. Oʻtgan yili bank 29,3 mlrd. AQSH dollari miqdordagi moliyaviy yordam koʻrsatdi. Shuningdek, 70 mlrd. dollarlik yangi dastur ishga tushirildi. Ushbu dastur Osiyo va Tinch okeani mintaqasida umumiy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlovchi mintaqaviy tizimlarni yaratishga qaratilgan. OTB Yaqin Sharqdagi davom etayotgan mojaro sharoitida oʻz aʼzo mamlakatlarga inqirozga qarshi yordam koʻrsatish boʻyicha tezkor choralar koʻrdi. Zararlangan davlatlarga moliyaviy yordam taklif qilgan birinchi rivojlanish hamkori boʻldi. Ushbu mamlakatlar yaqin kelajakda iqtisodiy bosimning yanada kuchayishiga duch kelishi kutilmoqda.

OTBning ishlari hali yakuniga yetgani yoʻq. Bank oʻzining



iqtisodiy hamkorlik dasturi va Global Ipak yoʻli: mintaqalarni turizm orqali bogʻlash" nomli sessiyada sayyohlik sohasida mintaqaviy integratsiya, muvofiqlashtirilgan siyosatlar va barqaror turizm amaliyotlarini joriy etish masalalari haqida soʻz bordi.

"Markaziy Osiyoda sifatli va barqaror toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb etish" mavzuidagi sessiyada kapital bozorlarini rivojlantirish, investorlarni himoya qilish hamda "yashil" energiya, raqamli

infratuzilma va logistika sohalariga investitsiyalarni jalb etish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, "Maʼlumotlar va sunʼiy intellekt orqali moliyaviy inklyuzivlikni qoʻllab-quvvatlash" borasidagi sessiyada fintex sohasidagi innovatsiyalar va sunʼiy intellektning moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirishiga alohida urgʻu berildi.

Kun tartibiga koʻra boshqa sessiyalarda ham dolzarb mavzular muhokamasi davom etmoqda.

noyob mintaqaviy mandati, operatsion imkoniyatlari hamda moliyalashtiruvchi tashkilot, maslahatchi va resurslarni safarbar qiluvchi sifatidagi roldan foydalanib, xususiy sektor mablagʻlarini rivojlanish uchun jalb etish va atrof-muhit degradatsiyasini bartaraf qilish kabi vazifalarni hal etadi. Oldinda turgan ishlar nihoyatda katta, maqsadimiz aniq. Bizda strategiya, resurslar bor. Birgalikda maqsadlarimizga erishamiz.

Sigo SIMIDZU, Osiyo taraqqiyot banki direktorlar kengashi ijrochi direktori:

– Yaponiya va Oʻzbekiston oʻrtasidagi munosabatlar uzoq yillik tarixga ega. Bugungi kunda ikki davlat oʻrtasidagi strategik hamkorlik oʻzaro ishonch va amaliy sheriklik tamoyillari asosida yanada mustahkamlanmoqda. Osiyo taraqqiyot banki doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar ham ushbu hamkorlikning amaliy ifodasidir. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi tashabbuslar va yapon kompaniyalarining jalb etilishi barqaror rivojlanish yoʻlida muhim qadam sifatida baholanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqida sunʼiy intellekt sohasiga alohida eʼtibor qaratilgan ham eʼtirofga sazovor. Yaponiyaning ilgʻor tajribasi va Oʻzbekiston bilan ushbu yoʻnalishdagi hamkorlikni kengaytirishga intilishi istiqbolli yoʻnalishlardan biridir. Yaponiya tomonidan moliyaviy va investitsiyaviy hamkorlikni yanada kuchaytirishga qiziqish ikki davlat munosabatlari yangi bosqichga chiqib borayotganidan dalolat beradi.

Abdulaziz YOʻLDOSHEV
("Xalq soʻzi").

delegatsiyalari, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamgʻarmasi (XVJ), Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki kabi yetakchi moliyaviy institutlar rahbarlari, 4 mingdan ziyod delegatlar, jumladan, transmilliy korporatsiyalar top-menejerlari va nufuzli ekspertlar fikrimizni tasdiqlaydi. Bunday yuksak darajadagi ishtirok Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi obroʻsi va islohotlar yoʻlidagi izchilligiga berilgan yuksak bahodir.

Maʼlumot uchun, Oʻzbekiston 1995-yildan buyon OTB aʼzosi sifatida bank bilan juda samarali hamkorlik qilib kelayotir. Bugungi kunda loyihalar portfelining umumiy hajmi qariyb 16 milliard dollarni tashkil etishi bu sheriklikning naqadar salmoqli ekanidan dalolat beradi. Shuningdek, "yashil" energetika, transport, raqamli

transformatsiya, taʼlim va boshqa yoʻnalishlarda umumiy qiymati 3 milliard dollardan ziyod loyihalar ishlab chiqilmoqda. Suveren boʻlmagan moliyalashtirish mexanizmlari faol joriy etilmoqda. Samarqand sammiti esa Osiyo qitʼasining kelajakdagi iqtisodiy xaritasini belgilab berishda muhim qadam boʻladi.

Sir emas, dunyodagi tahlikali vaziyat hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Hozirgi kunda jahondagi murakkab geosiyosiy vaziyat, global iqtisodiyotdagi beqarorlik, ozic-ovqat va energiya resurslari tanqisligi, kambagʻallik, ekologiya muammolari tobora oʻtir tus olib bormoqda.

Masalan, oʻrtacha global harorat 2040-yilga qadar 1,5 darajaga ortishi prognoz qilingan edi. Lekin hozirgi vaziyatda bu holat 2030-yildayoq yuz berishi mumkinligi jiddiy xavotirga solyapti. Dunyo aholisining tarvotdan bir qismi toza ichimlik suvi muammosiga

duch kelayotir. Iqlim oʻzgarishi surʼatlari tezlashishi oqibatida ozic-ovqat tanqisligi global xavfga aylandi. Natijada dunyoda 800 millionga yaqin aholi oʻta ogʻir kambagʻallik sharoitida yashayapti. Turli mintaqalarda avj olayotgan ziddiyatlar bois anʼanaviy logistika yoʻnalishlari muhtaqo oʻzgarmogʻa. Mahsulot yetkazish zanjiridagi uzilishlar xomashyo va isteʼmol tovarlarining qimmatlashishiga sabab boʻlayotir.

Bularning barchasi mavjud infratuzilmaga yuklamani keskin oshiradi va global iqtisodiy taraqqiyotga katta toʻsiq boʻladi. Bular barcha mamlakatlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishini qiyinlashtirmoqda. Bunday sharoitda global xavf-xatarlar oqibatlarini yumshatish, barqaror oʻsish, aholi turmush sharoitini yaxshilashda xalqaro moliya tashkilotlarining roli yanada oshib bormoqda. Bu borada Osiyo taraqqiyot banki ulkan loyihalar portfeli bilan nafaqat mintaqada, balki jahon miqyosidagi eng nufuzli moliya tashkilotlaridan biriga aylanganini alohida eʼtirof etish lozim.

Global muammolarga zamonaviy yondashuvlar

OTB boshqaruvchilari oldida yangi loyiha hamda dasturlarni muhokama qilish kabi masʼuliyatli vazifalar turibdi. Anjumanda qabul qilinadigan qarorlar bankka aʼzo mamlakatlarda yashaydigan 6 milliarddan ziyod aholining kundalik hayotiga bevosita taʼsir qiladi.

Yillik yigʻilishning oʻtkazilishi OTBning barcha ishtirokchilari va hamkorlari uchun Oʻzbekistondagi bugungi vaziyatni yaxshiroq anglashga xizmat qiladigan muhim maydonidir. Bu hamkorlikning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish hamda kelgusi loyihalarni birgalikda rejalashtirish uchun zamin yaratadi. Natijada OTB va Oʻzbekiston oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik kelajakda qanday rivojlanishi kerakligi haqida yanada aniqroq tasavvur shakllanadi.

Muhiddin POʻLATOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori.

Mamlakatimizda 2032-yil yakuniga qadar gidroenergetika sohasida 3 266 MvT qoʻshimcha quvvatlarni yaratish orqali gidroenergetika quvvatlarini 2,4 baravarga oshirish rejalashtirilgan.

ILM BILAN YASHNAGAN UMR

Xalqimiz topib aytgan ajoyib bir naql bor: "Ma'rifat insonlarni birlashtiradi va tenglashtiradi".

Darhaqiqat, chin ma'rifat insonni kibru havodan, shaxsiy manfaat hamda g'arazlardan yiroq qilib, uni poklik va samimiyat sari yetaklaydi. Ziyolilik belgisi ham aynan shunda – ilm-salohiyatni insoniyat manfaati yo'lida qo'llay bilish, qalblarga nur ulashish va ijobiy o'zgarishlarga turtki berishda namoyon bo'ladi.

Yaxshilar yodi

Shu ma'noda, kishi bir nechta diplom va ilmiy darajalarga ega bo'lishidan qat'i nazar, agar uning yuragida samimiyat va mehr bo'lmasa, u ziyolilik darajasi va maqomiga yete olmaydi. Zotan, chin ziyoli kishi ezu amallari, qoldirgan asarlari bilan hatto yuzma-yuz uchrashmagan odamlarning ham qalbidagi ilhom uyg'ota oladi.

Atoqli matematik olim, fizika-matematika fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Azimboy Sa'dullayevni eslaganda, tom ma'nodagi ziyoli insonning qiyofasi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Sababi, u hayotini ilm-ma'rifatga, ta'limga baxshida qilib, insoniylik rutbasini ulug' tutdi, ko'plab shogirdlar tarbiyalab, o'zidan boy ilmiy meros qoldirdi.

Ustozning hayoti bizga shuni anglatadiki, olim kishi o'zidagi yuksak ilmiy salohiyatga odamiylik fazilatlarini uyg'unlashtira olsa, uning nomi ham, merosi ham abadiyatga muhrlanadi. Azimboy Sa'dullayev ana shunday hayotlik chog'ida o'ziga haykal qo'ya olgan siymolardan biri edi.

Matematika faniga cheksiz mehmni, ta'limga sadoqatni, yoshlarga bilim berishda sabr-toqatni, ilm yo'lida matonatni shu insondan o'rganish kerak, nazariyimizda. Olim formulalar ortida bir dunyo mantiq, tartib va go'zallik mujassam ekanini ko'rsata olgan noyob iste'dod sohibi edi. Buni shogirdlariga matematikani raqam va belgilar yig'indisi emas, tafakkurni tarbiyalaydigan, insonni aniq hamda

to'g'ri fikrlashga o'rgatuvchi oliy fan sifatida tushuntira olgani misolida ko'rish mumkin.

A. Sa'dullayevning ilmiy faoliyati ko'p kompleks argumentli funksiyalar nazariyasiga bag'ishlangan. Uning fundamental tadqiqotlari ilmiy maqolalar shaklida xorijning nufuzli jurnallarida nashr qilingan, darslik va monografiyalarga kiritilgan.

Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi oddiy ishchi-dehqon oilasida dunyoga kelgan Azimboy kun kelib, dunyo ilm-fani namoyandalari tan olgan yetuk olim bo'lib yetishishini ko'pchilik xayoliga ham keltirmagan bo'lsa, neajab. Biroq uning hayot yo'li ilm va ma'rifat sari intilgan kishiga tole yor bo'lishining yorqin namunasiga aylandi.

Olimning ilm-fan rivojiga qo'shgan eng muhim ilmiy hissalaridan biri – ko'p kompleks argumentli funksiyalar nazariyasi rivojiga yangi nuqtayi nazar olib kirganidir. U amerikalik taniqli olimlar E. Bedford va B. Taylor bilan hamkorlikda "Kompleks potentsiallar nazariyasi" asoslarini shakllantirishda bevosita ishtirok etdi. Bu yo'nalish murakkab matematik masalalarning yechimida samarali vosita bo'lib xizmat qildi.

Ustoz yuksak tashkilotchilik qobiliyatiga ega mahoratlari murabbiy, fidoyi rahbar sifatida ham o'z davrida katta obro' qozongan edi. U 1992-yildan Urganch davlat universiteti rektori, keyinchalik esa 1997-yildan boshlab (1997 – 2002,

2004 – 2007) yangi tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi raisi sifatida faoliyat yuritdi. Qaysi lavozimda ishlamasin, uning bosh maqsadi – o'quv jarayonini sifatlilik tashkil etish, yosh iste'dodlarni kashf etish va ularni qo'llab-quvvatlash, ilmiy muhitni jonlantirish bo'lgan.

Azimboy Sa'dullayevning hayotini faoliyatining keyingi bosqichi ilimga sodiqlik, fidoyilik va mohir ustozlik fazilatlarini yanada bezadi. 2007-yildan to umrining so'ngigacha qadar O'zbekiston Milliy universiteti mexanika-matematika fakultetida faoliyat yuritib, talabalarga matematik analizing murakkab masalalarini, ilmiy tafakkur, intizom va mehnatsevarlik ruhini singirdi. U murakkab nazariyani soddaga, hayotiy misollar orqali yetkazib berish mahorati bilan talabalar mehnini qozongan edi. Ayniqsa, professor sifatidagi faoliyati yoshlarni ilimga oshno etish, ularning iste'dodini yuzaga chiqarish va ilmiy tafakkurga yo'l ko'rsatish maktabi bo'ldi. Domlaning bevosita rahbarligida 6 nafar fan doktori va 15 dan ortiq fan nomzodlari yetishib chiqqani, ko'plab shogirdlari dunyoning turli davlatlarida o'zbek matematiklarining yuksak salohiyatini namoyon etib kelayotgani fikrimiz tasdiq'idir.

Akademik nafaqat yurtimiz, balki butun dunyo ilmiy hamjamiyati e'tirofiga sazovor bo'lgan ulkan olimlardan biri edi. U mamlakatimizda keng ko'lami ilmiy izlanishlar olib borilayotgan yirik ilmiy yo'nalish – "Funksiyalar nazariyasi" maktabining asoschisi. Ayniqsa, ustozning ilmiy qarashlari va izlanishlari zamonaviy matematikada eng dolzarb yo'nalishlardan biri – "Plyuripotentsiallar nazariyasi"ni shakllantirishda muhim o'rin tutdi. Bu nazariya ko'p kompleks argumentli funksiyalarni chuqurroq o'rganish, ularni yangi usullar bilan tahlil qilish va u orqali murakkab masalalarga yangicha yondashuvni taklif etish

imkonini berdi. Sodda qilib aytganda, uning bebaho ilmiy merosi tufayli "Plyuripotentsiallar nazariyasi" bugungi kunda matematik tahlil hamda zamonaviy funksional analizing asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.


Olimning ilmiy faoliyati shunchaki nazariy natijalar emas, yangi ilmiy maktab, yangi avlod matematiklarini tarbiyalash uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Ustoz o'zbek ilm-fanining tarixiy ildizlarini o'rganish, ulug' allomalarimizning ilmiy merosini tiklash va ularni zamonaviy fan bilan uyg'unlashtirish borasida ham salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Xususan, u buyuk ajdodlarimiz – Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkirlarning ilmiy faoliyati, ularning matematika, astronomiya va tabiiy fanlarga qo'shgan ulkan hisssasi haqida chuqur izlanishlar olib borgan.

Azimboy Sa'dullayevning yana bir eng yirik tashabbuslaridan biri AQSH va O'zbekiston matematiklari o'rtasida xalqaro ilmiy konferensiyalarni yo'lga qo'ygandir. Har ikki yilda navbatma-navbat ikki mamlakatda o'tkazilib kelinayotgan mazkur anjumanlar nafaqat o'zbek matematika maktabining salohiyatini dunyoga tanitdi, balki mamlakatimiz fanining xalqaro maydondagi o'rnini kuchaytirishda muhim oim bo'ldi. Bu kabi sa'y-harakatlar pirovardida

Shu kunlarda o'zbek ilm-fani, xususan, matematika ilmda munosib iz qoldirgan yetuk olim Azimboy Sa'dullayevni nafaqat matematika ilmi vakillari va shogirdlari, balki keng jamoatchilik chuqur hurmat hamda cheksiz ehtirom bilan yodga olmoqda. Zero, uning benazir asarlari, o'lmas g'oyalari Yangi O'zbekiston matematika maktabini dunyoga yanada kengroq tanitish, innovatsion ilmiy yangiliklar yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda, ustozning hayoti va ilmiy merosini davom ettirish – bu nafaqat burch, balki biz uchun ulkan sharaf hamdir.

Bahrom ABDULLAYEV,
Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor,
Bakriddin ZARIPOV,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori,
Jahon fiziologlar jamiyati (Stokgolm) akademigi.



O'zbekistonda yangi matematika maktabi shakllanishi va rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi. Quvonarlisi, uning tashkilotchilik qobiliyati va fidoyiligi natijasida boshlangan an'analar bugun ham bardavom.

Do'stu birodarlar Azimboy Sa'dullayevni chin inson sifatida alohida qadrlaydi. Chunki u do'stlar uchun borini berishga tayyor sodiq va tanti kishi edi. Ularning yutuqlarini ko'rganida xuddi o'zi muvaffaqiyat qozongandek sevinar, qo'lidan kelgan yordamini ayamasi.

Olim ana shunday insoniy fazilatlarini bilan ham el-yurt hurmatiga sazovor bo'ldi. Undagi samimiyati, Vatanga cheksiz muhabbat ilm ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun ibrat namunasi bo'lib qoladi. Vatani taraqqiyoti va ilm-fan rivojiga qo'shgan ulkan hisssasi davlatimiz tomonidan e'tirof etilib, 2020-yilda "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni, 2020-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan edi.

ORZULAR USHALGAN KUN

Vokzalda yangi poyezdning dastlabki qatnoviga bag'ishlangan tantanali tadbirga ta'kidlanganidek, "Jaloliddin Manguberdi" poyezdlarining Toshkent va Xiva shaharlari orasida muntazam qatnashi nafaqat yurtimiz aholisi, balki xorijlik sayyohlar uchun ham poytaxtni bu qadimiy shahar bilan bog'lashda katta qulayliklarni yaratadi. Poyezd Toshkentdan harakatlangan, "Samarqand", "Buxoro" hamda "Urganch" temir yo'l vokzallarida to'xtab, so'ng "Xiva" vokzaligacha boradi.

Bugungi kunda tezyurur poyezdlarimiz Toshkentdan Xivagacha masofani 14 soatda bosib o'tayotgan bo'lsa, "Hyundai Rotem" poyezdlari Toshkentdan Xivagacha bo'lgan 1 ming 22 kilometrlik masofani 7 yarim soatda bosib o'tadi.

250 kilometr tezlikda harakatlanadigan zamonaviy poyezdlar O'zbekiston sharoitiga mos ravishda shakllantirildi. Poyezdlar tarkibining uzunligi 175 metr, 7 ta vagonidan iborat, o'rindiqdar soni 389 tani tashkil qiladi.

"Hyundai Rotem" kompaniyasining yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektro-poyezdlari mamlakatimizning iqlimiga to'liq moslashtirilgan.

Tantanali tadbirdan so'ng "Jaloliddin Manguberdi" poyezdi dastlabki yo'lovchilar va mehmonlar bilan Toshkentdan qadimiy Xiva shahri tomon harakatlandi. Yo'l davomida ilk qatnovning yo'lovchilari, mehmonlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari uchqur poyezd qulayliklari, zamonaviy sharoitlari hamda yuqori tezlikda harakatlanish imkoniyatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rishdi. Poyezd yetti yarim soatda "Xiva" vokzaliga muvaffaqiyatli yetib keldi va yangi poyezdning dastlabki reysi tantanali kutib olindi.

Yangi avlod poyezdlarining yurtimiz po'lat izlarida harakatlanishi sohadagi islohotlarning amaliy ifodasi bo'lib, nafaqat aholiga qulaylik hozirlash, balki turizm salohiyatini oshirish imkonini beradi.

"Xalq so'zi".

YOSH EKOLOGLAR TAYYORLASH – DAVR TALABI

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida Davlat ekologik ekspertizasi markazi va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga bag'ishlangan davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Unda markaz mutaxassislari o'z faoliyati, asosiy vazifalari va ekologik ekspertizaning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumot berdi.

Ta'lim



Ta'kidlanganidek, ekologik ekspertiza har qanday loyihaning atrof-muhit va aholi salomatligiga ehtimoliy ta'sirini baholashda muhim o'rin tutadi, ekologik xavflarni oldindan aniqlash imkonini yaratadi.

Muloqotda zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega ekolog kadrlarni tayyorlash

bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanini qayd etildi. Xalqaro hamkorlik, zamonaviy texnologiyalar, ma'lumotlar tahlili va ekologik modellashtrish sohasida yuqori salohiyatli, xorijiy tillarni biladigan mutaxassislarga ehtiyoj ortib borayotgani ta'kidlandi.

– Mamlakatimizda "Yashil makon", "Ekodemaniyat" va "Toza havo" umummilliy loyihalari izchil amalga oshirilmoqda, – deydi Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktori G'ayrat Muhamedov. – Ushbu tashabbuslar orqali yashil hududlar kengayib, havo sifati yaxshilanmoqda, ekologik ta'lim yanada rivojlanmoqda. Xususan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili

200 million tup daraxt va buta ko'chati ekish, 2030-yilga qadar yurtimizda yashilik darajasini 30 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Bu jarayonda talabalarning faol ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchrashuvda tomonlar ekologik kadrlar tayyorlashda dual ta'limni rivojlantirish, talabalarni amaliy loyihalarga jalb qilish bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirishga kelishib oldi. Shu munosabat bilan ikki tomonlama hamkorlik memorandumini imzolandi.

Tadbir doirasida universitetning Botanika bog'ida ko'chat ekish aksiyasi tashkil etildi. Bu esa atrof-muhitni muhofaza qilish g'oyalari amaliyotga ko'chayotganining yorqin ko'rinishi bo'ldi, albatta. Shuningdek, bir guruh ekofaol professor-o'qituvchilar va talabalarning "yashil" tashabbuslari e'tirof etilib, ular munosib taqdirlandi.

Ulug'bek RO'ZIMATOV
(**"Xalq so'zi"**).

O'zbekiston – Malayziya:

ILMIY-MA'RIFIY ALOQALAR KENGAYMOQDA

Markaz o'z faoliyatini boshlagan dastlabki davrdanoq Malayziyadagi qator idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda turli xalqaro anjumanlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuv va muloqotlar o'tkazib keladi. Jumladan, shu paytga qadar muassasa tomonidan Malayziyada O'zbekistonning tarixi va bugungi hayoti haqida ikki marotaba yirik fotoko'rgazma o'tkazildi. Markaz vakillari ushbu do'st mamlakatda o'n marotabadan ortiq xizmat safarlarida bo'lib qaytdi. Malayziyaliklar ham yurtimizda o'tayotgan xalqaro anjumanlarda muntazam qatnashib keladi.

– 2025-yil fevral oyida Prezidentimizning Malayziyaga davlat tashrifi doirasida Kuala-Lumpurda xalqaro konferensiya, qator uchrashuvlar, ko'rgazmalar, davra suhbatlari va taqdimotlar o'tkazdik, – deydi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abdullxolqov. – Malayziyadagi qator ilmiy-ma'rifiy muassasalar bilan memorandumlar imzoladik. Islom san'ati muzeyi markazimizning doimiy

hamkorlaridan biri sanaladi.

O'tgan yili Prezidentimiz so'zboshisi bilan "O'zbekiston madaniy merosi" loyihasi doirasida mazkur muzeyda saqlanayotgan O'zbekistonga oid artefaktlar haqida maxsus kitob-albom chop etildi. Umid qilamizki, o'zaro ilmiy muloqotlar, mamlakatlarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalar mustarak madaniyatimiz va tariximizni teranroq anglashga, turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Tadbirga do'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Administratsiyasi departament boshlig'i Muzaffar Komilov, Malayziya oliy ta'lim vaziri Datuk Seri Diradja Zambri Abdulqodir, O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov, Turkiyaning Ibn Xaldun



universiteti professori Alparslan Achikgench hamda boshqalar O'zbekiston va Malayziya hamkorligining istiqbollari, islom sivilizatsiyasi merosini tadqiq etishdagi muhim masalalar, ilmiy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha to'xtalib o'tdi.

– O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bugungi kunda islom madaniyati, tarixi, merosini

E'tirof

YURTIMIZ TALABALARI G'OLIBLARI SAFIDA

Yaqinda Rossiya Federatsiyasining Kostroma davlat qishloq xo'jaligi akademiyasida "Yoshlar va fan: qishloq hududlarini rivojlantirish" mavzuidagi 77-xalqaro talabalar ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Turli universitetlardan 400 nafardan ortiq talabalar qatnashgan anjumanda iqtisodiyot fanlari doktori, professor Muhammadali Saidov rahbarligidagi Toshkent davlat agrar universitetining iqtidorli talabalari o'zlarining dolzarb mavzulardagi ilmiy ma'ruzalari bilan ishtirok etib, yuqori o'rinnarni egalladi.

Jumladan, 2 nafar talaba o'z yo'nalishlari bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritib, eng yaxshi ilmiy ish muallifi, deb topildi va 1 darajali diplom bilan taqdirlandi. Yana 4 nafari faol ishtiroki va yuqori ilmiy saviyadagi ma'ruzalari uchun e'tirof etilib, rag'batlantirildi. Ushbu yutuq yurtimizda yoshlar ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilayotgan yuksak e'tiborning samarasidir.

Xalqaro konferensiya qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, agrobiznes, texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va iqtisodiy samaradorlik kabi keng ko'lami sohalarini qamrab oldi. Yakunda eng yaxshi deb topilgan ilmiy ishlar "Fan va texnologiyalar rivojlanishining dolzarb masalalari" nomli elektron to'plamda nashr etilishi belgilangan.

"Xalq so'zi".

Tadbir

«MOZIYGA QAYTIB»

Poytaxtimizdagi Abdulla Qodiriy uy-muzeyida "Moziyga qaytib" nomli keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. "Mahalla" xayriya jamoat fondi, "O'zbekligim-o'zligim" tashkiloti hamkorligida o'tkazilgan ushbu tadbir milliy qadriyatlarini targ'ib qilish, ajdodlar merosini yosh avlodga yetkazishda muhim o'rin tutmoqda.



Tadbirlar dasturi doirasida "Ipak sehiri" milliy liboslar namoyishi hamda qadimiy Turkiston so'zana va milliy liboslar ko'rgazmasi tashkil etildi. Ushbu yo'nalishda 70 dan ortiq an'anaviy kiyimlar namunalari keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi.

Shu bilan birga, buyuk adib Abdulla Qodiriyning mashhur "O'tkan kunlar" romani nashrining 100-yilligiga bag'ishlangan adabiy-ma'rifiy muloqot ham tashkil etildi. Unda adib ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni, romanning tarixiy-badiiy mohiyati, milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati hamda jadidchilik harakati bilan bog'liqligi ilmiy asosda tahlil qilindi.

Muloqotda yosh ijodkorlar o'z chiqishlari bilan qatnashib, adabiyot va san'atga oid fikr-mulohazalarini bildirdi. Bu tadbirning jonli va interfaol ruhda o'tishini ta'minladi.

Tadbirning yakuniy bosqichi sifatida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yinida 15 ga yaqin jamoalar qatnashdi. O'yin savollari, asosan, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi, "O'tkan kunlar" romani, jadidchilik harakati hamda o'zbek adabiyoti tarixiga oid bilimlarni qamrab oldi. Bellashuv yakunlariga ko'ra g'olib jamoa aniqlanib, uning har bir a'zosi rag'batlantirildi.

Shohsanam YO'LIDOSHEVA,
O'zDJTU talabasi.

jahon miqyosida o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi, – dedi Malayziya qirolichasi Raja Zarita Sofiya. – Zotan, bugungi kunda islomiy merosni o'rganish, uning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini belgilash nihoyatda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston – buyuk allomalar yurti, bu zamindan yetishib chiqqan allomalar merosi bugungi kunda ham islom olamida o'qib-o'rganilmoqda. Ularning ilmiy merosini keyingi avlodlarga ham yetkazish, asarlari ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalarni hayotimizda keng targ'ib etishga katta e'tibor qaratishimiz kerak. Bu borada ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik kutilgan samaralarni berishga ishonaman.

Shundan so'ng Malayziya va O'zbekistondagi qator ilmiy-ma'rifiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari o'rtasida memorandumlar imzolandi.

"Ilm va mening ta'rifi", "an'ansi", "Musulmon dunyosida ilm-fan ta'limi", "Zamonaviy da'vatlar va ilmiy paradigmalar" singari mavzulardagi shu'ba yig'ilishlarida o'zbekistonlik va xorijlik olimlar hamda tadqiqotchilar o'z ilmiy ma'ruzalari bilan qatnashdi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi binosida o'tkazilgan ekskursiyalar, muzey ekspozitsiyalari bilan tanishuv mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

"Xalq so'zi".

2030-yil yakuniga qadar mamlakatimizdagi barcha davlat tibbiyot muassasalari faoliyati bosqichma-bosqich majburiy litsenziyalanadi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi	Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV 2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-542. 23 409 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda. Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling. TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.	Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohumani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahriyrga kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.	MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir F. Bozorov. Musahhah S. Islomov.
"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.30 Topshirildi – 23.40 1 2 3 4 5 6			